

SPORT SOHASIDA GENDER TENGLIKNI TA'MINLASHNING HUQUQIY MEXANIZMLARI

Mavlyanova Madina Botir qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti

Sport huquqi yo'nalishi magistratura talabasi.

E-mail: madinamavlyanova26@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19947077>

Annotatsiya. Mazkur tezisdagi sport sohasida gender tenglikni ta'minlashning huquqiy mexanizmlari kompleks tarzda tahlil qilinadi. Xususan, xalqaro hujjatlar asosida sportda diskriminatsiyani bartaraf etish, erkaklar va ayollar uchun teng imkoniyatlar yaratish hamda ayollar sportini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan normalar tahlil etilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida gender tenglikni ta'minlashning konstitutsiyaviy asoslari va amaldagi qonunchilik normalari ko'rib chiqilib, ularning sport sohasidagi qo'llanish xususiyatlari ochib berilgan.

Tezisdagi sport tizimida gender tenglikni ta'minlashning asosiy mexanizmlari — normativ-huquqiy, institutsional, moliyaviy hamda monitoring mexanizmlari yoritilgan. Tahlil jarayonida amaliyotda mavjud muammolar tahlil etilgan. Shu asosda mazkur tezisdagi sport sohasida gender tenglikni yanada takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: gender tenglik, diskriminatsiya, ayollar sporti, teng imkoniyatlar, huquqiy mexanizmlar, institutsional mexanizmlar, moliyaviy ta'minot.

Аннотация. В данном тезисе комплексно анализируются правовые механизмы обеспечения гендерного равенства в сфере спорта. В частности, на основе международных документов рассмотрены нормы, направленные на устранение дискриминации в спорте, обеспечение равных возможностей для мужчин и женщин, а также поддержку женского спорта. Кроме того, изучены конституционные основы обеспечения гендерного равенства в Республике Узбекистан и нормы действующего законодательства, а также раскрыты особенности их применения в спортивной сфере. В тезисе освещены основные механизмы обеспечения гендерного равенства в системе спорта — нормативно-правовые, институциональные, финансовые и мониторинговые механизмы. В ходе анализа рассмотрены существующие проблемы на практике. На этой основе разработаны предложения и рекомендации по дальнейшему совершенствованию гендерного равенства в сфере спорта.

Ключевые слова: гендерное равенство, дискриминация, женский спорт, равные возможности, правовые механизмы, институциональные механизмы, финансовое обеспечение

Abstract. This thesis provides a comprehensive analysis of the legal mechanisms for ensuring gender equality in the field of sports. In particular, it examines norms based on international instruments aimed at eliminating discrimination in sports, ensuring equal opportunities for men and women, and supporting women's sports. It also analyzes the constitutional foundations of gender equality in the Republic of Uzbekistan and the norms of current legislation, revealing the specific features of their application in the sports sector. The thesis highlights the main mechanisms for ensuring gender equality in the sports system, including legal, institutional, financial, and monitoring mechanisms. The analysis also addresses existing practical challenges. Based on these findings, proposals and recommendations for further improving gender equality in the field of sports are developed.

Keywords: *gender equality, discrimination, women's sports, equal opportunities, legal mechanisms, institutional mechanisms, financial support*

Kirish

So'nggi yillarda gender tenglik masalasi global miqyosda inson huquqlarining ajralmas qismi sifatida e'tirof etilib, davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Jamiyatning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotida erkaklar va ayollarning teng ishtirokini ta'minlash barqaror rivojlanishning muhim omili hisoblanadi. Sport sohasi ham bundan mustasno emas. Sport nafaqat jismoniy tarbiya vositasi, balki ijtimoiy integratsiya, tenglik va adolat tamoyillarini namoyon etuvchi muhim ijtimoiy institutdir. Shu sababli sport sohasida gender tenglikni ta'minlash davlatning ijtimoiy siyosati va huquqiy islohotlarining muhim tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Mazkur maqolaning maqsadi sport sohasida gender tenglikni ta'minlashning huquqiy mexanizmlarini tahlil qilish, ularning samaradorligini baholash hamda takomillashtirish yo'nalishlarini aniqlashdan iborat.

Asosiy qism

Gender tenglik erkaklar va ayollarning barcha sohalarda teng huquq va imkoniyatlarga ega bo'lishini anglatadi. Bu tushuncha nafaqat formal tenglikni, balki real, amaliy teng imkoniyatlarni ham nazarda tutadi. Zamonaviy xalqaro huquqda gender tenglik inson huquqlarining asosiy tamoyillaridan biri sifatida mustahkamlangan.

Xalqaro miqyosda sportda gender tenglikni ta'minlash bir nechta yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

**diskriminatsiyaga qarshi umumiy kafolatlar;
sport tashkilotlarida teng vakillikni ta'minlash;
ayollar sportini qo'llab-quvvatlash dasturlari;
teng moliyalashtirish siyosati.**

Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan "Ayollarga nisbatan kamsitishlarning barcha shakllariga barham berish to'g'risida"gi konvensiya (CEDAW) davlatlardan ayollarga nisbatan diskriminatsiyani bartaraf etish va barcha sohalarda teng sharoit yaratishni talab qiladi. Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiya (CEDAW) nafaqat ayollarning siyosiy va ijtimoiy huquqlarini, balki ularning sport sohasidagi imkoniyatlarini ham huquqiy jihatdan himoya qiluvchi asosiy xalqaro hujjatdir.

Konvensiyaning 10-moddasi (g-band) davlatlar zimmasiga erkaklar va xotin-qizlar uchun sport va jismoniy tarbiya bilan shug'ullanishda bir xil imkoniyatlar yaratish majburiyatini yuklaydi. Shuningdek, 13-modda (c) ayollarning sport va madaniy hayotning barcha jabhalarida qatnashish huquqini mustahkamlaydi.¹

Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi sportda gender tenglikni ta'minlash yo'lida uzoq va murakkab rivojlanish bosqichlarini bosib o'tmoqda: 2014-yildan boshlab rasman "Olimpiya kun tartibi-2020" hujjatida bu masalani ustuvor yo'nalish deb belgilagan bo'lsa, Parij-2024 o'yinlari tarixda birinchi marta ayollar va erkaklar o'rtasida ishtirokchilar soni bo'yicha to'liq tenglikka erishgan voqea sifatida qayd etilmoqda.

¹ BMT Bosh Assambleyasi. (1979). CEDAW Konvensiyasi. Rezolyutsiya 34/180.
URL: <https://www.un.org/womenwatch/daw/cedaw/text/econvention.htm>

Bu yutuq Xalqaro Olimpiya Qo'mitasining gender tengligiga uzoq vaqtdan beri sodiqligi natijasidir. Ayollar birinchi marta 1900-yilda Parijda bo'lib o'tgan Olimpiya o'yinlarida ishtirok etganlarida, ayollar ishtiroki atigi 2,2 foizini tashkil etgan.

O'shandan beri ayol sportchilar soni barqaror ravishda o'sib bordi: 1984-yilgi Los-Anjelesda 23 foiz, 2012-yilgi Londonda 44 foiz va 2024-yilgi Parijda 49 foiz.

Ayol sportchilar uchun teng imkoniyatlar yaratishga qaratilgan maqsadli sa'y-harakatlar, xususan, Olimpiya dasturini rivojlantirish orqali ijobiy yutuqlarga erishildi:

1996-yilgi Atlanta Olimpiadasida ayollar futboli joriy etildi.

2000-yilgi Sidney Olimpiadasida ayollar taekvondosi, triatlon, og'ir atletika va zamonaviy beshkurashning qo'shilishi ayollarning ishtirokini sezilarli darajada oshirdi.

2012-yilgi London Olimpiadasida ayollar boksi dasturga qo'shilganida muhim voqea yuz berdi. Tarixda birinchi marta ayollar Olimpiya dasturidagi barcha sport turlarida ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'lishdi.²

O'zbekistonda gender tenglikni ta'minlash konstitutsiyaviy prinsip sifatida e'tirof etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 58-moddasida xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar. Davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarda teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlashi mustahkamlangan.³

Bundan tashqari, "Erkaklar va ayollar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi Qonun gender tenglikni ta'minlashning asosiy normativ-huquqiy asosini tashkil etadi. Ushbu qonunda to'g'ridan-to'g'ri sport sohasiga oid norma mavjud bo'lmasa-da, biroq umumiy tartibda xotin-qizlarga barcha sohalarda teng imkoniyatlar yaratilishi belgilab qo'yilgan.

"Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonunning 4-moddasida jismoniy tarbiya va sport sohasida kamsitishga va zo'rvonlikka yo'l qo'yilmasligi belgilab qo'yilgan.⁴

Sport sohasida gender tenglikni ta'minlashning amaliy mexanizmlari bir necha o'zaro bog'liq yo'nalishlarda namoyon bo'ladi. Avvalo, normativ-huquqiy kafolatlar muhim ahamiyat kasb etadi. Amaldagi qonunchilikda diskriminatsiyaga yo'l qo'yilmasligi, erkaklar va ayollar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar yaratilishi belgilab qo'yilgan.

Bu esa sport sohasida ham bir xil shart-sharoitlar, teng ishtirok imkoniyati va adolatli tanlov jarayonini ta'minlashni anglatadi. Huquqiy normalar sport tashkilotlari, federatsiyalar va boshqa subyektlar faoliyatida majburiy qo'llanilishi lozim bo'lgan asosiy mezon sifatida xizmat qiladi.

Shu bilan birga, institutsional mexanizmlar gender tenglikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Davlat boshqaruvi organlari, sport federatsiyalari va nodavlat tashkilotlar tomonidan ayollar sportini rivojlantirishga qaratilgan dasturlar amalga oshirilmoqda. Sport tizimida gender siyosatini yuritish, ayollar ishtirokini kengaytirish va ularning rahbarlik lavozimlarida faoliyat yuritishini rag'batlantirish mazkur mexanizmning muhim tarkibiy qismidir. Xalqaro darajada ham bu masalaga alohida e'tibor qaratilib, masalan, Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi tomonidan sport boshqaruvida gender balansini ta'minlash bo'yicha aniq tavsiyalar ishlab chiqilgan.

² Gender equality through time: at the Olympic Games

URL: <https://www.olympics.com/ioc/gender-equality/gender-equality-through-time>

³ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi

⁴ "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi qonun

Moliyaviy mexanizmlar ham gender tenglikni amalda ta'minlashning muhim omili hisoblanadi. Ayollar sportini rivojlantirish, ularni xalqaro musobaqalarga tayyorlash, sport infratuzilmasini yaxshilash hamda murabbiylik faoliyatini qo'llab-quvvatlash uchun yetarli mablag' ajratilishi zarur. Moliyalashtirishdagi nomutanosiblik gender tengsizlikning kuchayishiga olib kelishi mumkin. Shu bois davlat budjeti, homiylik mablag'lari va grantlar taqsimotida tenglik tamoyiliga rioya etilishi muhimdir.

Monitoring va javobgarlik mexanizmlari ham alohida ahamiyatga ega. Gender tenglik normalariga rioya etilishi ustidan nazorat tizimi samarali ishlamasa, qonuniy kafolatlar faqat deklarativ xarakter kasb etib qoladi. Shu nuqtai nazardan, sport tashkilotlari faoliyatini tahlil qilish, hisobot tizimini joriy etish va huquqbuzarlik aniqlanganda tegishli choralar ko'rish muhim hisoblanadi. Bu jarayonda davlat organlari bilan bir qatorda jamoatchilik nazorati ham muhim rol o'ynaydi.

Shunga qaramay, amaliyotda ayrim muammolar saqlanib qolmoqda. Xususan, ayollar sportiga ajratilayotgan moliyaviy resurslarning yetarli emasligi, sport boshqaruvida ayollar ulushining pastligi hamda ayrim sport turlarida gender stereotiplarning mavjudligi gender tenglikni to'liq ta'minlashga to'sqinlik qilmoqda. Ba'zi hollarda sport infratuzilmasi ham ayollar ehtiyojlariga to'liq moslashtirilmagan. Bundan tashqari, ommaviy axborot vositalarida ayollar sportining yetarli darajada yoritilmasligi ham ijtimoiy qarashlarga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun kompleks yondashuv zarur. Avvalo, sport tashkilotlarida gender audit tizimini joriy etish maqsadga muvofiqdir. Bu orqali ayollar va erkaklar o'rtasidagi imkoniyatlar, moliyalashtirish va vakillik darajasi tahlil qilinadi. Shuningdek, rahbarlik lavozimlarida ayollar ulushini oshirish bo'yicha maqsadli dasturlar ishlab chiqish zarur.

Aholi o'rtasida gender tenglik madaniyatini shakllantirish, sportda ayollar ishtirokini ommalashtirish va ularni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan targ'ibot ishlari ham muhim ahamiyatga ega.

Xulosa

Xulosa sifatida ta'kidlash joizki, gender tenglikni ta'minlashning huquqiy mexanizmlari samarali ishlashi uchun normativ baza, institutsional tuzilma, moliyaviy qo'llab-quvvatlash va nazorat tizimi o'zaro uyg'un holda faoliyat yuritishi lozim. Faqat shundagina sport sohasi haqiqatan ham tenglik va adolat tamoyillariga asoslangan ijtimoiy institutga aylanishi mumkin.

Umuman olganda, sportda gender tenglikni ta'minlashning huquqiy mexanizmlari faqat rasmiy qoidalar bilan cheklanmay, balki ularni amalda bajarish, monitoring qilish va buzilish holatlariga nisbatan javobgarlik mexanizmlarini ham o'z ichiga oladi. Shu bois, gender tenglikni ta'minlash uzluksiz huquqiy islohotlar va xalqaro hamkorlikni talab qiladigan jarayon hisoblanadi.

Sport sohasida gender tenglikni ta'minlash nafaqat huquqiy, balki ijtimoiy ahamiyatga ega masala bo'lib, jamiyatda adolat va tenglik tamoyillarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. BMT. (1979). Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiya (CEDAW).
2. <https://www.un.org/womenwatch/daw/cedaw/text/econvention.htm>
3. 2.Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi. (2025). Gender equality in sport. <https://www.olympics.com/ioc/gender-equality>

4. Indelicato, A. (2025). Does gender equality in sports matter? Examining the socio-economic impact on public perceptions. *Frontiers in Sports and Active Living*.
5. <https://doi.org/10.3389/fspor.2025.1537064>
6. Talleu, C. (2011). Gender equality in sports: Access for girls and women to sport practices (Good Practices Handbooks, No. 2). Council of Europe, Enlarged Partial Agreement on Sport (EPAS).
7. <https://www.icsspe.org/system/files/CoE%20-%20Gender%20Equality%20in%20Sports%20-%20Handbook%20on%20Good%20Practices.pdf>
8. O'zbekiston Respublikasi. (2023). O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (yangi tahrir, 30.04.2023). Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.
9. <https://lex.uz/uz/docs/-6445145>
10. O'zbekiston Respublikasi. (2019). Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida (O'RQ-562-son, 02.09.2019). Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. <https://lex.uz/docs/-4494849>
11. O'zbekiston Respublikasi. (2026). Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida (O'RQ-1123-son, yangi tahrir, 24.03.2026). Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. <https://lex.uz/uz/docs/-8093787>